



YASHIL JAMIYAT TARAQQIYOTI: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR UYG'UNLIGI.

Amirova Nodira Shamshiyevna

Alfraganus Universiteti Psixologiya PS-23-1 guruh talabasi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yashil jamiyat taraqqiyotida xorijiy davlatlar tajribasi va bu borada O'zbekistondagi yondashuvlar haqida so'z yuritiladi .

Kalit so'zlar: ekologiya, atrof muhit, jamiyat, insonlar, ishlab chiqarish, xorijiy , axborot. davlatlar, yurtimiz, tajriba .

KIRISH

Yashil jamiyat deganda beixtiyor ko'z o'ngimizga yam-yashil tabiat, so'lim bog'lar, ko'rkam tog'lar, musaffo osmon-u, shaldirab oqqan suvlar, quvnab yugurib yurgan hayvonlar-u, osmonda uchgan qushlar gavdalanadi. Yer yuzini ana shunday mo'jizalar bilan Yaratgan Olloh ularning qatorida ODAMZODni ham yaratdi va bu guzallikni unga xizmat qiluvchilardan qildi.

“ Albatta biz har bir narsani o'lchov bilan yaratdik.”

Qur'oni Karim Qamar surasi 49-oyat.

Bu hayotda odam yaralibdiki, atrofimizni o'rab turgan yashil jamiyat insoniyatga xizmat qiladi. Onaning mehri cheksiz bo'lganiday, ona tabiatimizni



ham bizga mehri chegarasiz. Undagi bor mavjudod, turli tuman mevalar-u, noz ne'matlar faqat inson uchun yaratilganday go'yo...

Ammo... ming afsuslar bo'lsinki, Odamzod bugun uni ayanchli xolga keltirdi. niqsa bu XX asrga kelib boshlandi va XXI asrga kelib jadal avj oldi.

¹Sayyoramizda kun sayin keskinlashib borayotgan ekologik muammolarni bartaraf etish uchun insonlarning ekologik bilimi yuqori bo'lishi lozim. Shu bois har yili 15-aprelda dunyoning ko'plab mamlakatlarida Xalqaro ekologik bilimlar kuni nishonlanadi.

²Rio-de-Janeyro shahrida 1992-yili o'tkazilgan BMT konferensiyasining atrof-muhit muammolari muhokamasi chog'ida ushbu xalqaro sanani insoniyatning hayoti va barqarorligi uchun butun dunyoda ekologik bilimlarni targ'ib etish kuni sifatida nishonlash taklif etilgan. Bundan asosiy maqsad sayyoramiz ahlining ekologik bilimini boyitish g'oyasini ilgari surish, aholida tabiatga bo'lgan mehr va e'tiborni kuchaytirish, jamiyatning ekologik xavfsizligi haqida jamoatchilik xabardorligini oshirishdir.

Ekologik bilimlar — inson va tabiat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tushunishga yordam beradigan nazariy va amaliy bilimlar majmuasi. Bu bilimlar insonning tabiatga bo'lgan ijobiy munosabati, ya'ni tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ifloslanishni kamaytirish, bioxilma-xillikni saqlash va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Aslida, atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari nafaqat ekologlar, balki har bir fuqaroning kun tartibida bo'lishi darkor. Nega deganda, ekologik savodxon inson

¹ Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, G'ulom Mirzo "Ekologik ta'lim –inson va tabiat o'rtasidagi murakkab munosabatlar sabog'i"

² G'ulom Mirzo " Ekologik Ta'lim-inson va tabiat o'rtasidagi murakkab munosabatlar sabog'i"



o‘z hayot tarzi orqali atrof-muhitga kamroq zarar yetkazadi, qayta ishlash, energiyani tejash, toza muhitni saqlash kabi faoliyat jarayonlariga oqilona ishtirok etadi.

Shu ma’noda, Yangi O‘zbekistonda ekologiya sohasining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilgani alohida tahsinga sazovor. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda tabiiy resurslar, jumladan, suv havzalari va yer osti zaxiralarini muhofaza qilish bo‘yicha talablar mustahkamlandi.

Asosiy qonunimiz Muqaddimasida e’tirof etilganidek, biz «mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib», ushbu Konstitutsiyani qabul qilganmiz.

Bosh qomusimizning 49-moddasi to‘laligicha ekologiya va atrof-muhit himoyasiga oid normalardan iborat. Xususan, ushbu moddaning birinchi bandida: «Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega», deb qayd etilgan.

So‘nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Yangi O‘zbekistonning uchta strategik dasturi – 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi ishlab chiqildi. Birinchisi to‘la bajarilgan va qolgan ikkitasi hayotga teran tatbiq etilayotgan ushbu dasturilamal strategiyalarda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalasiga har doimgidan ko‘ra yuz karra ko‘proq e’tibor berilgan.

Qolaversa, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi ijrosi doirasida Ekologiya kodeksi loyihasi ishlab chiqildi.



Bundan tashqari, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan "Inson huquqlari himoyasi uchun" ko'krak nishoni bilan taqdirlanadigan faollar safi 2021-yilda "Ekologiya huquqi himoyachisi" nominatsiyasi g'oliblari hisobiga kengaydi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, davlatimiz rahbari tomonidan 2025-yil yurtimizda "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilingani bu borada g'oyat muhim qadam bo'ldi.

Prezidentimizning 2025-yil 7-fevraldagi Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida yurtimizda ekologik barqarorlikka erishish, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish, tarmoq va sohalarning uyg'un "yashil transformatsiya"sini amalga oshirish hamda iqtisodiy o'sishning yangi, "yashil rivojlanish" modelini tatbiq etish bo'yicha qator muhim vazifalarni amalga oshirish belgilab olindi.

Bu vazifalar orasida, albatta, ekologik bilimlarni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar alohida o'rin tutadi. Davlat dasturi doirasida, jumladan:

ta'lim muassasalarida "Ekologik burchaklar" ochish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ekologik yo'lakchalar" tashkil etish;

mamlakat miqyosida ekologik madaniyatni oshirishga qaratilgan turli ommaviy targ'ibot tadbirlarini o'tkazish;

"Yoshlar oyli" doirasida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga bag'ishlangan turkum tadbirlarni amalga oshirish;

"Ekologiya bilimdonlari" ko'rik-tanlovini o'tkazish;



Ekologik muammolar va ularning yechimlariga bag'ishlangan "Ekooromgoh-2025"ni tashkil etish kabi ko'plab amaliy chora-tadbirlar izchillik bilan hayotga tatbiq etilayotgani diqqatga loyiqdir.

Bu haqda so'z borganda, shuningdek, mamlakatimiz Bosh vazirining 2019-yil 27-maydagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanganini ta'kidlash lozim. Mazkur Konsepsiya yurtimiz hududlaridagi ekologik muammolar yechimiga ta'lim tizimini joriy qilish bilan hissa qo'shish, o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida ishlab chiqilgan va qabul qilingan.

Shu o'rinda xorijda bu vaziyat qanday?,

degan savol tug'iladi.

1992 yil iyun oyida Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan BMTning Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha konferentsiyasi (UNCED) atrofidagi e'lonlar global isish va biologik xilma-xillikning yo'qolishi kabi muammolar bo'yicha global ekologik tashvishlar jahon siyosiy kun tartibida muhim o'rin egallashini tasdiqladi. . Darhaqiqat, 1972 yilgi Stokgolmdagi inson muhiti konferentsiyasi va 1992 yilgi BMT CBMT Konferentsiyasi o'rtasidagi yigirma yil ichida nafaqat mahalliy, ham global miqyosda inson faoliyatining atrof-muhitga tahdidlari haqida xabardorlik sezilarli darajada oshdi, balki ekologik muammolarni tartibga soluvchi xalqaro huquqiy hujjatlar sonining keskin ko'payishi. (Ko'p sonli ekologik shartnomalar to'plamlari mavjud: qarang, masalan, Burhenne 1974a, 1974b, 1974c; Hohmann 1992; Molitor 1991. Zamonaviy sifat baholash uchun Sand 1992 ga qarang.)

Chet mamlakatlarda ekologik tadbirlarga ancha oldin e'tibor berilgan. Shimoliy Yevropa va Amerika davlatlarida atrof muhitni muhofaza qilish strategiyasidan



uning holatini hamma bosqichda nazorat qilishga tamom qaratilgan. Xalqaro standartlarga monand ravishda ekologik ta'limda atrof muhit haqida va atrof muhit uchun ta'lim mavjud. Bunda ko'plab davlatlar, jumladan : Daniya, Shvetsiya, Norvegiya, AQSH, Yaponiya va shu kabi qator davlatlarda ekologiya va uni himoya qilish sohasi o'quv dasturlariga fan sifatida kiritilgan bo'lib, unda o'quvchilar maktablarda tashkil etilgan "jonli burchak"larda tabiat bilan yaqindan tanishadilar. Bu esa yosh avlodda tabiatga mehr tuyg'usini uyg'otadi

³Xullas, ekologik tarbiya va ta'limni takomillashtirish bo'yicha quyidagi mulohazalarni aytish mumkin: butun dunyo bo'yicha, jumladan, mamlakatimiz hududida ekologik holatni ijobiy tomonga o'zgartirish uchun birinchi navbatda aholining ekologik bilimini oshirish lozim. Buning uchun nafaqat u m u m ta'lim maktablarida, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlariga ekologiya fanini kiritish, balki barcha ishlab chiqarish korxonalari, muassasa va tashkilot rahbarlarining ham bu sohadagi malakalarini oshirish zarur. Hamma joyda ham ekologik jihatdan yetuk kishilar yetishmaydi. Hozircha joylarda «Ekologiya uchun kurashishni» xohlovchilar ham juda kam. Bu ishlarni tashkil qilish uchun sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish korxonalarining o'zaro munosabatlarini tartibga solish, texnika va qurilmalarini yaratish, qisqasi, ekologik xizmatni yo'lga qo'yish lozim. Bir so'z bilan aytganda, juda sertashvish va savobli ish bilan shug'ullanish lozim. Bilimni bir tizimli, uzluksiz ekologik tarbiya va ta'lim asosida qurish kerak. Bu holat avval oilada, so'ngra maktabda davom etadi. Shuni ham ta'kidlash joizki, o'quv muassasalarida «Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish» maxsus kursini asosiy fan sifatida o'qitish lozim. Chunki o'quv muassasalarida o'qitiladigan boshqa fanlarni o'qitishda yer. suv, o'rmon va boshqa tabiiy resurslarning ayanchli holati to'la yoritib berilmaydi. Bu borada o'rta va oliy o'quv muassasalarining tabiiy va ijtimoiy fan o'qituvchilari ham

³ P.Sultonov "Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish asoslari"



yerlarhosildorligining pasayib, o'simlik va hayvonot dunyosining yo'qolib ketayotganligiga, ichimlik suvlari sifatini yomonlashayotganligiga va o'zimiz nafas olayotgan havoni ifloslanayotganligiga biz aybdor emasmiz, degan fikrdan uzoq bo'lishlari kerak. Kishilik jamiyati nafaqat moddiy boyliklarni ko'paytirish orqali rivojlanadi, balki tobora ortib borayotgan insonlar ehtiyojini aql-idrok bilan qondirish. bir qator mamlakatlarda kuzatilayotgan ocharchilik, chuchuk suv va oziqovqat yetishmovchiligidan, bolalar o'limining ortib borishidan. havo va boshqa muhitlarni ifloslanishidan bartaraf etish kabi ijtimoiy muammolarni hal etish orqali rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

P.Sultonov "Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish asoslari"

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, G'ulom Mirzo "Ekologik ta'lim –inson va tabiat o'rtasidagi murakkab munosabatlar sabog'i"

LGU 1979 8 Alimov T L Rafikov AA **ekalogiya** xatolik saboklari T 1991 9 Shodimetov Yu Ijtimoiy **ekalogiyaga** kirish T 1991 10 Mil'kov FN Landshaftnoya Sreda zemli M 1970 11

.arxiv.uz/ru/documents/slaydlar/ekologiya/